

**MUHAMMAD AMINXON MADRASASI ME'MORCHILIGI VA
UNING TARIXIY-BADIIY AHAMIYATI**

Nurmuxammedov Mirvoxid Xamidulla o'g'li

Namangan davlat universiteti talabasi

E-mail: nurmuhammadovmirvohidjon@gmail.com

Tel: +998 (94) 392 42 62

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xiva shahrining Ichon qal'a hududida joylashgan Muhammad Aminxon madrasasi me'moriy tuzilishi, qurilish uslubi, bezak san'ati hamda uning Xorazm me'morchilik maktabidagi o'rni ilmiy jihatdan yoritiladi. XIX asrda bunyod etilgan ushbu yodgorlikning shaharsozlik tizimidagi ahamiyati va badiiy yechimlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xiva, Ichon qal'a, madrasa, Xorazm me'morchiligi, peshtoq, hujra, koshin, tarixiy yodgorlik.

Аннотация: В данной статье научно рассматриваются архитектурная структура, строительные особенности, декоративное искусство и место медресе Мухаммад Амин-хана, расположенного на территории Ичан-Калы в городе Хива, в Хорезмской архитектурной школе. Анализируются градостроительное значение и художественные решения данного памятника, возведённого в XIX веке.

Ключевые слова: Хива, Ичан-Кала, медресе, хорезмская архитектура, пештак, худжра, керамическая плитка, исторический памятник.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the architectural structure, construction features, decorative art, and the role of the Muhammad Amin Khan madrasah located in the Itchan Kala area of Khiva within the Khorezm architectural school. It also examines the urban significance and artistic solutions of this 19th-century monument.

Keywords: Khiva, Itchan Kala, madrasah, Khorezm architecture, portal (pishtaq), cell (hujra), ceramic tile, historical monument.

O'rta Osiyo me'morchilik tarixi insoniyat tamadduni rivojida alohida o'rin tutadigan, o'zining chuqur ildizlari va boy an'analari bilan ajralib turadigan noyob madaniy qatlam hisoblanadi. Bu hududda ming yillar davomida shakllangan shaharsozlik, qurilish texnikasi va badiiy bezak san'ati avlodlardan avlodga o'tib, yuksak darajada rivojlanib borgan. Ayniqsa, Xorazm vohasi me'morchiligi o'zining betakror uslubi, g'isht terish madaniyati, geometrik va o'simliksimon naqshlari hamda monumental inshootlari bilan O'rta Osiyo me'moriy maktablari orasida alohida o'rin egallaydi. Bu maktabning eng yorqin namoyon bo'lish joyi esa Xiva shahri bo'lib, u bugungi kunda ham o'zining tarixiy qiyofasini deyarli to'liq saqlab qolgan noyob shahar sifatida qadrlanadi. Xiva shahrining Ichan qal'a majmuasi nafaqat O'zbekiston, balki butun jahon madaniy merosi tizimida alohida ahamiyatga ega bo'lgan ochiq osmon ostidagi muzey sifatida e'tirof etiladi. Bu hududda joylashgan har bir me'moriy inshoot o'z davrining ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotini aks ettiruvchi muhim tarixiy manba hisoblanadi. Ayniqsa, XIX asr Xiva xonligi davri shahar me'morchiligining eng yuksak rivojlangan bosqichi bo'lib, bu davrda ko'plab madrasa va masjidlar barpo etilgan. Ularning har biri o'zining hajmi, tuzilishi va badiiy bezaklari bilan ajralib turadi hamda o'sha davr ilm-ma'rifat muhitining rivojlanganidan dalolat beradi.

XIX asr Xiva xonligi siyosiy va madaniy hayotida Muhammad Aminxon davri muhim bosqichlardan biri sifatida qayd etiladi. Aynan shu davrda qurilgan yirik me'moriy obidalaridan biri Muhammad Aminxon madrasasi bo'lib, u Xiva shahrining markaziy qismida, Ichan qal'a hududida joylashgan holda shahar me'moriy tizimining ajralmas bo'lagiga aylangan. Muhammad Aminxon madrasasi o'zining ulkan hajmi, murakkab rejaviy tuzilishi va muhandislik yechimlari bilan Xorazm me'morchilik maktabining eng yetuk

namunalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu madrasa nafaqat diniy ta'lim berish muassasasi, balki o'z davrida ilm-fan, tafakkur va ma'naviy tarbiya markazi sifatida ham muhim o'rin tutgan. Bu esa uning jamiyat hayotidagi funksional ahamiyatini yanada kengaytiradi.

Mazkur madrasa qurilishi Xiva shahrining me'moriy qiyofasini yanada boyitib, Ichon qal'a ansamblining uyg'unligini mustahkamlagan. Uning peshtoqi, hovli tuzilishi, hujralar tizimi hamda bezak san'ati Xorazm ustalarining yuksak mahoratini yaqqol namoyon etadi. Shu bilan birga, bu inshootda ishlatilgan qurilish uslublari va badiiy yechimlar o'sha davr me'morchilik maktabining texnik va estetik imkoniyatlari qanchalik rivojlanganini ko'rsatadi. Mazkur maqolada Muhammad Aminxon madrasasining tarixiy shakllanish jarayoni, me'moriy-rejaviy tuzilishi, bezak san'atining o'ziga xos xususiyatlari hamda uning Xorazm me'morchilik maktabi rivojidagi o'rni keng ilmiy tahlil asosida yoritiladi. Shuningdek, ushbu yodgorlikning shaharsozlik tizimidagi ahamiyati, tarixiy-madaniy qiymati va bugungi kunda saqlanib qolgan holati ham atroflicha ko'rib chiqiladi.

Muhammad Aminxon madrasasi 1851–1852-yillarda Xiva shahrining Ichon qal'a hududida bunyod etilgan yirik me'moriy yodgorliklardan biridir. Ushbu madrasa va uning yonida qurilishi rejalashtirilgan minora Xiva shahrida eng katta va eng go'zal me'moriy ansamblni tashkil etishi ko'zda tutilgan edi. Biroq qurilish ishlari to'liq yakuniga yetmay qolgan.

Madrasaning bosh fasadi — ya'ni peshtoqi — balandligi va bezakdorligi bilan alohida ajralib turadi. U mayda ravoqchalar tizimiga bo'lingan bo'lib, bu unga nafis va murakkab ko'rinish beradi. Binoning burchak qismlarida joylashgan mezanali burjlar esa inshootga yanada salobat va me'moriy uyg'unlik bag'ishlaydi. Umuman olganda, madrasa qurilishida Xiva me'morchilik maktabiga xos bo'lgan badiiy va konstruktiv uslublarning eng yetuk namunalari qo'llanilgan[1]. Madrasa ikki qavatli qilib qurilgan bo'lib,

uning ichki tuzilishi o'ziga xos me'moriy yechimga ega. Birinchi qavatdagi hujralar dahlizli shaklda tashkil etilgan bo'lsa, ikkinchi qavatdagi hujralar peshayvonli tarzda bunyod etilgan. Bu uslub Xiva madrasalari me'morchiligida ilk bor aynan shu inshootda qo'llanilgan bo'lib, keyingi davr binolariga ham ta'sir ko'rsatgan. Hovli atrofidagi ayvonlar sodda, ammo umumiy me'moriy kompozitsiyaga mos tarzda qurilgan. Ikki qavatli ayvonlarning bag'allari va qarama-qarshi joylashgan peshtoqlari sirlangan koshinlar bilan nafis bezatilgan. Hujralarning yuqori qismi esa baxmalga o'xshash gumbazlar bilan yopilgan bo'lib, bu ichki muhitga o'ziga xos estetik ko'rinish beradi. Katta hajmli xonalarning gumbazlari esa burchaklardan chiqarilgan toqli qiya sath — ya'ni qanos (parus) usulida ko'tarilgan. Peshtoqning yarim gumbaz shaklidagi olti qirrali ravoqlari ham sirlangan koshinlar bilan bezatilib, binoning badiiy qiymatini yanada oshiradi. Masjid gumbazi esa peshtoqdan ancha baland ko'tarilib, inshootning umumiy ko'rinishida muhim vertikal urg'u yaratadi. Madrasaning umumiy kompozitsiyasida kuzatiladigan bunday assimetrik yechim uning yonida baland minora ham bo'lishi kerakligini tabiiy ravishda talab qilgandek taassurot uyg'otadi. Aynan shunday me'moriy yondashuv keyinchalik Islomxo'ja madrasasi va minorasi majmuasida ham takrorlangan bo'lib, Xiva me'morchilik an'anasining davomiyligini ko'rsatadi.

Muhammad Aminxon madrasasi Xiva me'morchilik an'alarining eng rivojlangan davrida bunyod etilgan yodgorliklardan biri bo'lib, uning qurilishida shakl va funksionallik uyg'unligi yaqqol ko'rinadi. Inshootning ichki rejalashtirilishi o'z davri uchun ilg'or me'moriy tajribani ifodalaydi. Madrasa ikki qavatli tuzilishga ega bo'lib, qavatlar o'rtasidagi funksional farq uning o'ziga xosligini oshiradi. Birinchi qavatdagi hujralar kirish yo'lakli (dahlizli) shaklda tashkil etilgan bo'lsa, ikkinchi qavat hujralari ochiq ayvonli ko'rinishda qurilgan. Bu yechim Xiva madrasalari me'morchiligida ilk bor aynan shu inshootda qo'llanilgan bo'lib, keyingi

me'moriy tajribalarga asos bo'lgan. Hovli atrofidagi ayvonlar sodda konstruksiyaga ega bo'lib, ular binoning umumiy me'moriy ritmi bilan uyg'unlashgan. Ikki qavatli ayvon qismlarida qo'llangan qanoslar hamda qarama-qarshi joylashgan peshtoqlar sirlangan koshin bezaklari bilan boyitilib, binoga nafislik va estetik muvozanat bag'ishlaydi[2]. Ichki xonalarning tom qismi balxi uslubidagi gumbazlar bilan yopilgan bo'lib, bu yechim nafaqat konstruktiv mustahkamlikni, balki ichki muhitning barqarorligini ham ta'minlagan. Sharqiy tomonda joylashgan masjid va g'arbiy tomondagi darsxona qismida gumbazlar burchaklardan chiqarilgan maxsus qiya tayanch — bag'allar yordamida ko'tarilgan. Bu uslub binoning og'irlik taqsimotini muvozanatlashda muhim rol o'ynagan.

Peshtoq qismi murakkab geometrik yechimga ega bo'lib, olti qirrali ravoqlar va sirlangan bezaklar bilan ishlangan. Binoning yuqori qismi, ayniqsa gumbazlar tizimi, peshtoqdan balandroq joylashib, me'moriy kompozitsiyada vertikal dinamika hosil qiladi. Madrasa kirish qismi ikki qavatli miyonsaroy ko'rinishida bo'lib, u besh gumbazli bo'g'imlarga ajratilgan. Bu esa inshootning kirish qismiga ham monumental xarakter beradi. Shuningdek, binoda ishlatilgan yog'och o'ymakorligi mahsuli bo'lgan eshik va panjaralar o'zining nozik ishlanishi bilan ajralib turadi va yuqori badiiy qiymatga ega.

Muhammad Aminxon madrasasi XIX asr o'rtalarida Xiva xonligida yuz bergan siyosiy va harbiy voqealar fonida bunyod etilgan yirik me'moriy inshootlardan biridir. Muhammad Aminxon davrida Marv va Seraxs hududlari atrofida yashagan taka, sariq va yovmut kabi turkman urug'larining qo'zg'olonlari kuchayib, xonlik ichki siyosiy vaziyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shunga qaramasdan, davlat boshqaruvida obodonchilik va shahar qurilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Xiva shahrida o'sha davrda 60 dan ortiq madrasa mavjud bo'lgan bo'lib, ular orasida eng yirigi va salobatlisi Muhammad Aminxon tomonidan qurdirilgan

madrasa hisoblanadi[3]. Ushbu inshoot shahar markaziy qismidagi Ichan qal'aning g'arbiy tomonida, Ota darvoza kirish yo'nalishiga yaqin hududda joylashgan bo'lib, shahar me'moriy tizimida muhim o'rin egallaydi. Madrasa pishiq g'ishtdan barpo etilgan bo'lib, devorlarining qalinligi taxminan bir yarim metrni tashkil etadi. Bunday mustahkam qurilish usuli binoning uzoq muddat saqlanishini ta'minlagan. Inshoot ikki qavatli bo'lib, jami 130 ta hujradan iborat. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, bu yerda bir vaqtning o'zida 250–260 nafar talaba tahsil olgan. Qurilish jarayoni Xiva me'morchilik an'alariga xos tartibda tashkil etilgan. Dastlab madrasa va uning yonidagi minora qurilishi uchun loyiha tanlovi e'lon qilinib, ustalar tomonidan taklif etilgan chizmalar ichidan ma'qullangan loyiha asosida ishlar boshlangan. Qurilish ishlari ustalar va devonbegi amaldorlar nazorati ostida olib borilgan. Shu davrda Xorazmning mashhur me'morlari va ustalari jalb etilib, binoning har bir qismi puxta rejalashtirilgan holda qurilgan[4]. Madrasa qurilishi yakunlangach, u katta tantanalar bilan ochilgan va unda ishtirok etgan amaldorlar hamda yaqinlarga sovg'alar ulashilgan. Shu bilan birga, bino peshtoqiga bitilgan yozuvlar nasta'liq xatida bajarilib, inshootning qurilish maqsadi va homiysi haqida ma'lumot berilgan. Bu yozuvlar tarixiy hujjat sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Me'moriy jihatdan madrasa simmetrik reja asosida qurilgan bo'lib, to'g'ri burchakli hovli atrofida joylashgan hujralardan iborat. Peshtoq qismining ikki yon tomoniga an'anaviy guldasta-minora shaklidagi me'moriy elementlar ishlangan bo'lib, ular binoga vertikal muvozanat va salobat bag'ishlaydi. Kirish qismi besh gumbazli miyonsaroy ko'rinishida yechilgan bo'lib, bu yechim Xiva me'morchiligiga xos monumental uslubni ifodalaydi. Madrasa tarkibida masjid, darsxona va qo'shimcha xonalar mavjud bo'lib, ular o'zaro uyg'un holda joylashtirilgan. Hovlining ikki tomonida kichik peshtoqlar ham qurilgan bo'lib, ular ichki makonning me'moriy ritmini boyitadi. Birinchi qavatdagi hujralar asosan yashash va yordamchi xonalar

vazifasini bajargan, ikkinchi qavatdagi ravoqli ayvonlar esa ochiq va yorug' muhit yaratgan. Ichki hovlida to'rtta kichik kirish ravoqlari mavjud bo'lib, ularning bezaklarida o'yma koshinlar va nafis yozuvlar qo'llanilgan. Derazalarda ganchdan ishlangan panjaralar o'rnatilib, ular nafaqat bezak, balki yorug'likni yumshatish vazifasini ham bajargan. Binoning pastki qismida, devor va poydevor oralig'ida namlikning o'tishini oldini oluvchi maxsus tosh belbog' (gidroizolyatsiya qatlamiga teng himoya qatlami) qo'llanilgan bo'lib, uning balandligi taxminan 68 santimetrni tashkil etadi. Bu esa o'sha davr me'morlarining muhandislik bilimlari yuqori darajada bo'lganidan dalolat beradi.

Muhammad Aminxon madrasasi o'zining ulkan hajmi, me'moriy mukammalligi va badiiy bezaklari bilan nafaqat Xiva shahrining, balki butun Xorazm me'morchilik maktabining eng salobatli yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Uning ulug'vor ko'rinishi bugungi kungacha saqlanib qolgan bo'lib, bu inshootga dunyoning turli mamlakatlaridan kelayotgan sayyohlar katta qiziqish bilan tashrif buyuradi. Madrasa ichki tuzilishi nihoyatda murakkab va puxta rejalashtirilgan. Birinchi qavatda 120 dan ortiq hujralar mavjud bo'lib, ularning har biri ibodat va yashash uchun mo'ljallangan alohida xonalardan iborat[5]. Bu esa talabalar uchun qulay yashash va ta'lim olish sharoitini ta'minlagan. Ikkinchi qavatdagi hujralar esa ochiq ayvonli shaklda qurilgan bo'lib, ular ichki makonga yorug'lik va havo aylanishini ta'minlab, me'moriy jihatdan yengillik va nafislik bag'ishlaydi. Madrasa hududida bir vaqtlar diniy va ma'naviy boshqaruv markazi sifatida faoliyat yuritgan ulamolar idorasi ham joylashgan bo'lib, bu uning faqat ta'lim maskani emas, balki muhim diniy-ma'muriy markaz bo'lganini ko'rsatadi. Binoning tashqi ko'rinishida besh gumbazli markaziy qism va burchaklardagi minoralar uning ulug'vorligini yanada oshiradi. Ushbu me'moriy elementlar binoga vertikal muvozanat berib, uni uzoqdan ham ajralib turadigan salobatli inshootga aylantiradi.

Bezak san'ati jihatidan madrasa Xorazm me'morchilik maktabining eng yuksak namunalaridan biridir. Unda sirlangan g'ishtlar, rang-barang mayolika bezaklari hamda nafis o'ymakorlik ishlari keng qo'llanilgan. Bu bezaklar nafaqat estetik go'zallik, balki madaniy va tarixiy mazmunni ham ifodalaydi.

Bugungi kunda madrasa Xiva shahrining eng muhim sayyohlik maskanlaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega. Har yili minglab mahalliy va xorijiy sayyohlar ushbu yodgorlikni tomosha qilish uchun tashrif buyuradi. Ichan qal'a majmuasining ajralmas qismi sifatida u O'zbekistonning turizm salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Sayyohlar bu yerda nafaqat me'moriy go'zallikni, balki o'rta asr ilm-ma'rifat muhiti va Xiva xonligining tarixiy ruhini ham his etadilar. Shu tariqa madrasa bugungi kunda ham o'zining tarixiy, madaniy va turistik ahamiyatini yo'qotmagan holda, Xorazm me'morchiligining tirik yodgorligi sifatida qadrlanib kelmoqda.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Muhammad Aminxon madrasasi Xiva me'morchilik san'atining eng yuksak bosqichida yaratilgan yodgorliklardan biri sifatida nafaqat o'z davrining bilim maskani, balki xalq ustalarining me'moriy tafakkuri va badiiy mahoratini ifodalovchi noyob inshootdir. Bu madrasa orqali o'sha davrdagi jamiyatda ilmga bo'lgan e'tibor, diniy-ma'rifiy hayotning markazlashuvi hamda shaharsozlik madaniyatining rivojlangan darajasini yaqqol ko'rish mumkin. Ushbu yodgorlikning qadri-qimmatini faqat tarixiy ma'lumotlar bilan emas, balki uning bugungi kungacha saqlanib qolgan ulug'vor qiyofasi bilan ham belgilanadi. Asrlar osha o'z shaklini yo'qotmagan me'moriy yechimlar, gumbazlar uyg'unligi va bezak san'ati uni o'ziga xos "tirik tarix" darajasiga olib chiqadi.

Shu jihatdan qaraganda, madrasa bugungi kunda ham Xiva shahrining me'moriy timsoli, milliy madaniyatimizning muhim bo'lagi va sayyohlarni o'ziga tortuvchi betakror maskan sifatida qadrlanadi. Uni o'rganish esa nafaqat tarixni bilish, balki ajdodlarimiz yaratgan me'moriy tafakkurni anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Vaxitov M.M., Mirzayev Sh.R. Me'morchilik. – Toshkent, "Tafakkur" nashriyoti, 2010. – 366 b.
2. <https://meros.uz/uz/object/%E2%80%8Bmuhammad-aminxon-madrasasi>
3. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/246>
4. Жабборов И, Ртбеладзе Э, Мамбетуллаев М Хива минг гумбаз шаҳри – Хоразм “Шарқ” нашриёти, –1997, 307 б.
5. <https://uzbekistan.travel/uz/o/muhammad-aminxon-madrasasi>